

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил махсус сон



Боши мұхаррір: Наманган давлат университети ректоры С.Т.Турғунов

Масъул мұхаррір: Илмий ишлар ва инновациялар бүйічі проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул мұхаррір үринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бүлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАХРИРХАЙТАСИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аззамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тұхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов. ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Раширова, акад. А.Тұраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қышлоқ жұжалиғи фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: - акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзулаев, тар.ф.д., проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Іқтисодиёт фанлари: - и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари:-ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: - акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуков, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н., доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ү.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: - б.ф.д. Ф.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник мұхаррір: Н.Юсупов

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи құчасы, 316-үй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсаты қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бүйічі Олий аттестация комиссиясынинг диссертациялар асосий илмий натижаларини чөп этиши тавсия этилған илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

"НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ" журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдагы 08-0075 рақамлы гувоҳномаси хамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси хузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август күни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чөп этилади. "НамДУ Илмий Ахборотномаси" электрон нашр сиғатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгайтирилган ийгилишида мұхокама қылғынеб,

илмий тұрпалам сиғатида чөп этиши га рұхсат этилған (Баённома № 13). Мақолаларнинг илмий савияси ва көлтирилған мағлұмомтлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021



Chet tildagi multfilmlar tilni o'rgatishda eng yaxshi yordamchilardan biri hisoblanadi. Bolalar multfilmlarni yaxshi ko'radir va ularni ketma-ket ko'p marta tomosha qilishdan zavqlanadilar. Multfilmlar bolalarga chet tilni o'rganishda til bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muammolarni hal qilishda yordam beradi:

- bolada "nega bu so'zlarni o'rganish kerak" degan savol bo'lmaydi;
- u multfilm tomosha qilishga qiziqadi va qahramonlarning iboralarini mammuniyat bilan takrorlaydi;
- multfilmlar bolaga nafaqat yangi so'zlarni o'rganishga, balki chet tildagi nutq tovushlarini ham o'zlashtirishga yordam beradi;
- takrorlash – agar bolaga multfilm yoqqan bo'lsa, uni qayta-qayta ko'rishga tayyor bo'ladi va oqibatda yod oladi.

Xulosa shuki, maktabgacha yoshdag'i bolalarga chet tilni sifatli o'rgatish va o'qitishda faqat ko'rish, eshitish va gapirish til ko'nikmalarini rivojlantirish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Bu, birinchi navbatda, o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq bo'ladi. Bolalarni chet tilda muloqot qilishi uchun ularga "jonli" muhitni o'qituvchi tomonidan yaratilishi asosiy omil hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Astafieva M.D. Ingлиз tilini o'rganayotgan bolalar uchun bayramlar. –M.: Mozaika-Sintez, 2009 yil.
- 2.Galskova N.D., Nikitenko Z.N. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Boshlang'ich mакtab: uslubiy qo'llanma.-M.: Iris-press, 2004 yil.
- 3.Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'rgatamiz, ustamiz.-Rostov n / a: Feniks, 2009 yil.
- 4.Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun chet tili.- M.: VAKO, 2008 yil.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA YUQORI SINF O'QUVCHILARIGA CHET TILI GRAMMATIKASI O'QITISHNING ZAMONAVIY USUL VA VOSITALARI

Mamatova Dilrabo, Shamsiddinova Maftuna

Namangan davlat universiteti, Ingliz filologiyasi fakulteti Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchilar

E-mail: lillianalilly1504@gmail.com. Tel:+998972566536

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili grammatikasini turli zamонавиy metodlar asosida ta'lим jarayонида takomillashtirish yоритиlgан. Unda umumiy o'rta ta'lim maktab yuqori sinf o'quvchilariga Ingliz tili grammatikasini o'rgatish muhokama qilingan, shuningdek ta'lими rivojlantish uchun bir qancha тавсиялар berilган.

Keywords: Grammatik mavzu, zamon, interfaol usul, grammatick qoidalar, amaliyot.

***Annotation:** This article discusses the improvement of English grammar in the educational process through various modern methods. It discusses the teaching of English grammar to high school students in general secondary education, as well as provides a number of recommendations for the development of education.*

***Keywords:** Grammatical theme, tense, interactive method, grammatical rules, practice.*



O'zbekistonda uzluksiz ta'lif yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy hayotga mustaqil moslashish ko'nikmalarini hamda istiqbol rejalarini belgilash va hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda hozirgi davr talabida bo'lish ahamiyatlidir. Shuning uchun ham jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy taraqqiyotini o'stirishda chet tillarini yaxshi biladigan yosh avlodni tarbiyalashda chet tili, xususan ingliz tilining o'rni juda katta. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ingliz tilini o'qitishning maqsadlari jamiyat, davlat manfaatlari hamda talablaridan kelib chiqishi, unga muvofiq kelishi kerak.

Chet til o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi quyidagilarni ko'zda tutadi: a) nutqiy qobiliyatning tarkibiy qismalari tinglash, idrok etish, payqab olish, til hodisalarini farqlash, fikri mantiqli ifoda etish va boshqalar; b) nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayonlar: tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, tahlil va sintez, umumlashtirish; c) muloqot qilish qobiliyati: his-hayajon, gapirishga chechanlik, kirishimlilik, xushmuomalali bo'lish, suhbat chog'ida tashabbuskorlik ko'rsatish, imo-ishora vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish va boshqalar; d) xorijiy tilni va tili o'rganilayotgan mamlakat, uning xalqi, madaniyati, urf-odatlari kabilarni o'rganishga bo'lgan ichki va tashqi motivatsiya, qiziqish hamda ishtiyoqlar; e) ta'lim chog'ida mustaqil ishslash va bilim olishini tugatgandan so'ng o'quvchilarini mustaqil ta'lim olishga tayyorlash[1].

Zamonaviy metodika talablaridan kelib chiqib, grammatic xodisalarni o'rgatishga integrativ yondashishni tanladik. Ayrim grammatic xodisalar esa o'zining ma'no yoki yasalish usullariga ko'ra ona tili grammatic hodisalari bilan o'xshashligi tufayli ular o'zlashtirish uchun katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu haqda tilshunos T.Sattorov tadqiqotlarida batafsil ma'lumot berilgan, grammatic hodisalarga tabaqali yondashuv g'oyasi ilgari surilgan.

Chet til ta'limida informatsion texnologiyalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Binobarin o'quvchilarga grammatic xodisalarni o'rgatish jarayonida quyidagi informatsion texnologiyalardan foydalanishni lozim topdir: kompyuter texnologiyasi (internet tarmogi), interaktiv metodlar, ochiq munozara (disput), ekskursiya, auksion, matbuot konferensiysi, konkurs, dumaloq stol, orzu-niyat, she'riyat turlari, chet til o'rgatish proyekt metodi va boshqalar. Interaktiv metodlar qo'llanganda, o'quvchining o'zi mustaqil holda erkin fikr yuritadi, o'qituvchi bilan hamkor sifatida ishlaydi. Ingliz tili darslarida o'quvchilarining grammatic ko'nikmalarini takomillashtirishda internet texnologiyalari axborot olish va muloqot kilishning eng zamona viy shakllaridan biridir. O'quvchilar internetdan foydalanib, ma'ruza va referatlar yozishadi.


Multimedia o'quv materialini ovozli tarzda taqdim etish imkonini yaratadi, ya'ni virtual o'qituvchi vazifasini o'taydi. O'quvchi sof inglizcha talaffuzni tinglaydi, o'z nutqini unga moslashtirishga harakat qiladi.

Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilariga so'z boy ligini orttirish uchun elektron lug'atlarning roli beqiyosdir. Elektron lug'atda so'zlar grafik timsoli orgali emas, balki bevosita tovushlar majmui sifatida talaffuz qilinadi. Bunday lug'atlar bilan ishslashda so'zлами eslab qolish oson kechadi va ular uzoq muddatli xotirada saqlanadi.

O'quvchilar bilimini tekshirish va mustahkamlash maqsadida test olinadi. Test jarayonida o'quvchilarda mustaqil ishslash va o'zini-o'zi baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Ma'lumki, mustaqil holda olingan ilim xotirada uzoq saqlanadi va qayta esga olish oson kechadi. Zamona viy texnologiyalardan bo'lgan strategiya va o'yin-topshiriqlari o'quvchilarini zerikishdan saqlaydi va ularni mustaqil tarzda aqliy faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlaydi[2].



Shuningdek ingliz tili grammatikasini umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'rnatishda klasterli yondashuv yoki usul ham samarali yordam beradi. Bu usul nafaqat samarali balki o'quvchilar uchun bilim berishda judayam qulay usul hisoblanadi. Misol uchun:



Maxsus kuzatishlarimiz va o'tkazilgan tajribamiz asosida quyidagi xulosalarga keldik: o'yin-topshirqlardan foydalanish chet til o'qitishning amaliy, tarbiyaviy, umumta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi; o'quvchilarning xorijiy tilda fikr bayon etish(gapirish)ga nisbatan psixologik salbiy kechinmalarini bartaraf etishga imkon beradi, o'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatadi, nutq malakalarini egallashni o'zlashtiradi, maqsadga erishish, g'alaba qozonishga undaydi, tilni kommunikativ metodika asosida o'rganishga imkon beradi, barcha o'quvchilarni darsga jalb qilishga, qiziqishlarini yanada orttirishga, dars samaradorligini ko'tarishga salmoqli hissa qoshadi.

Xulosa

Bilim, ko'nikma va malaka chet til o'rganishda o'ziga xos munosabat kasb etadi va bu o'quv predmetining xususiyatini aks ettiradi. Nutqda fikrni ifodalash yoki ifodalangan fikrni tushunib olish uchun til materialini qo'llay bilish talab etiladi. Bunga erishish uchun til vositalari bilan nutq mazmuni orasida mustahkam va moslashuvchan aloqa, S.Setlin ta'biri bilan, assotsatsiya o'matilishi kerak bo'ladi.

Nutqiy malaka tarkibida til ko'nikma shakllantiriladi. Grammatik ko'nikmani hosil qilish uch bosqichli metodik dbir hisoblanadi: 1) taqsimot bosqichi yangi grammatik birlikni tushuntirish (nutq namunasida taqdim etish), tushuntirish va dastlabki grammatik amallarni bajarishdan iborat. 2) grammatika mashqlarini bajarish. Bu bosqich asosan ko'nikma hosil qilishga qaratiladi. 3) grammatik hodisani nutq faoliyati turlarida qo'llanilish bosqichi[3]. Aytilganlardan a'yon bo'ladiki, grammatika bilimlarni singdirish uchun emas, balki ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarida ingliz tili grammatik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-metodik tafsifini tadqiq qilishdan ko'zlanadigan yagona maqsad ingliz tili grammatikasini o'rgatish modelini kiritishdir. Nazariy model o'quvchilarning inglizcha grammatik ko'nikmalarini takomillashtirish texnologiyasini tashkil etadi. Chet tili o'qitishda qo'llanadigan mashqlar tasnidlandi: nutq faoliyati turlari (gapirish/tinglash/tushunish/o'qish/yoqish) mashqlari; til materiali (leksika/grammatika/talaffuz) mashqlari; retseptiv/reproduktiv mashqlar; taqdimot/trenirovka/qo'llanish mashqlari; tanishish/mashq bajarish/qo'llash/tuzatish



(korreksiya) mashqlari olib borilishi lozim. Shakllantiruvchi (bilim beruvchi/informatsion/umumlashmani o'zlashtirish); rivojlaniruvchi (ko'nikma hosil qiluvchi/operatsion/tayyor materialni o'rgatish) mashq; takomillashtiruvchi (malaka hosil luvchi/motivatsion/grammatik harakatni egallash) mashq kabilar o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Adabiyotlar:

- [1] Safaeva F.N., Umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarida ingliz tili grammatikasi va uni rivojlanirish masalalari, Molodoy uchenniy, T:, 2016, - 112 b.
- [2] Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, 5-maxsus son, T:, 1999, - 25 b.
- [3] Umumta'lim maktablari dasturi, Chet tillar, O'qituvchi, T:, 1996, - 44 b.

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI
SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI**

Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna

Namangan davlat universiteti Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kommunikativ kompetensiyanı rivojlanirish haqida fikrlar yuritilgan. Shu bilan birga kommunikativ kompetensiyanı rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan omillar keltirilgan va ularni bartaraf etish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, o'quvchi, kommunikativ, kompetensiya, layoqat, individual, zamonaviy yondashuv, ta'lim sifati, musobaqalashmoq, raqobatlashmoq, bellashmoq, samoradorlik, tushunuvcchanlik, moslashuvchanlik, yutuqlilik, muvaffaqiyatlilik, natijalilik, xususiyat, sifat, miqdor, ijtimoiy kompetensiya.

**ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛНЫХ КЛАССОВ**

Жураева Тургуной Умаржоновна
Наманганский государственный университет

Аннотация: В данной статье речь идёт о развитии коммуникативной компетенции учащихся начальных классов. С этим еще приведены факторы, которые способствуют развитию коммуникативной компетенции, и даны советы по устранению различных факторов.

Ключевые слова: способность, учащийся, коммуникатив, компетенция, пригодность, индивидуальные, современный подход, качество образования, соревноваться, состязаться, бороться, эффективность, понятливость, адаптация, перспективность, успешность, действенность, особенность, качество, количество, экономический компетенция.

**EFFECTIVE WAYS OF FORMING COMMUNICATIVE COMPOTENCE OF THE PUPILS
OF PRIMARY CLASSES**

Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna
Namangan State Univercity



108	Устоз-шогирд маданиятини шакллантиришда Айкидо шарқ яккаурашининг аҳамияти Камбаров Н.С., Рахматова Х.А.	525
109	Maktabgacha yoshdagи bolalar hayotida jismoniy tarbiya vositalarining o'rni. Asqarova D.Q., Asqarov F.T.	530
110	Технология дарсларида ўқувчиларни техник фикрлаш қобилиятини шакллантириш ва ривожлантириш зарурати Мухитдинова Ж.Р.	535
111	Kitobga muhabbat uyg'otishda oilaning o'rni Xodjiyeva F.T.	539
112	Bolalar bog'chasida chet tilni o'rgatish metodikasi Nishanova T.A., Shermatjonova M.N.	542
113	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilariga chet tili grammatikasi o'qitishning zamonaviy usul va vositalari Mamatova D., Shamsiddinova M.	545
114	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning samarali yo'llari Jo'rayeva T.U.	548
115	An'anaviy va no'ananaviy dars mashg'ulotlari, uning afzallik va kamchiliklari Ibroximov M.A., Rustamova Z.F.	553
116	Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish. Nuriddinova D.I., Zaylobiddinova M. A,	557
117	Kitobxonlikka qiziqishni tarbiyalash orqali o'quvchilarda shaxslararo madaniyatni shakllantirish Zaylobiddinova M. A., Nuriddinova D.I.	562
118	O'quvchilarda kreativ salohiyatni shakllantirishning individual-psixologik xususiyatlari Ibrohimova N.I., Nuraliyeva K.I.	567
119	Fan-tehnika taraqqiyoti davrida yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari. Mirqosimova M.	572
120	Халқ ўйинларининг таълим – тарбия жараёнидаги педагогик омиллари Эгамбердиева Т.А., Йўлдошев С.В.	575
121	Oliy ta'lim muassasalari talabalarini sog'lom turmushga tayyorlashda jismoniy tarbiya va sportning o'rni Mahmudov N.N.	580
122	The role of motivation in teaching English to young learners Akbarova R., Baxriddinov A.	584
123	Chet ta'limida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari Kukiboyeva M.	589
124	Ingliz tilini o'rganish jarayonida tanqidiy fikrлаш madaniyatini shakllantirish omillari Tuychiev A.T.	592